

Ayol borki olam munavvar!

Bugun Turin Politehnika Universitetida bahorning ilk bayrami – 8-mart Xotin-qizlar bayram tadbiri nishonlandi. Universitetimiz ayollari go'zal guldastalar va bayram sovg'asi bilan bayramona kayfiyatda kutib olindilar. Tadbir boshida TTPU rektori J.Sh.Inoyatxodjayevo universitetning go'zal va maftunkor ayollariga o'zlarining bayram tabrigini bildirib, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlarning o'rni nihoyatda muhim ekanligiga alohida to'xtalib o'tdi. Yasatilgan sahna bezaklari, turli viktorinalar bayramga o'zgacha ko'rk bag'ishladi. Bayramning ikkinchi qismini Universitetning "Yoshlar Ittifoqi" tomonidan tayyorlangan bayram dasturi davom ettirdi.

Shu fursatdan foydalanib, barcha aziz ayollarni bayram bilan tabriklaymiz. Sizlarga ajoyib bahoriy kayfiyat, uzoq umr, sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu-baraka tilaymiz!







